

soʻzning oʻz qoʻllanilish oʻrni boʻyicha kontekstual izohi taqdim etiladi. Buning uchun shoir ijodiga mansub har bir gʻazal oʻziga xos tahlilni va alohida yondashuvni talab etadi. Sababi har bir gʻazalda mutafakkirning oʻz ijod uslubiga xos alohida badiiy fikri va ruhiy holati ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. – B. 102.
2. Alisher Navoiy. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. Toʻla asarlar toʻplami. 10-jild. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 2013. – B.14-15.
3. Abjalova M. Gʻulomova N. Создание лингвистической базы данных для авторского корпуса Алишера Навои. – Одиннадцатая международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «Turklang2023» – Buxoro, 2023 – B. 659-669.
4. Ishoqov Yo. Soʻz sanʼati soʻzligi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2014. – B. 149.
5. Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻotit turk. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1963. – B. 91.
6. Olimov F. Fazilatlar sohibi-Sayyid Xasan. – Toshkent.: 2021. – B. 161.
7. Qayumov Aziz. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ashʼorlar. – Toshkent. 2014. – 207 b.
8. Qilichev Ergash. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Buxoro. 2009. 60-bet.
9. Xoʻjayev T. Navoiy davri hayotini anglashga doir baʼzi mulohazalar. – Toshkent: 2021. – B. 52.
10. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. A. Madvaliyev tahriri ostida. 5 jildli. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy enselopediyasi, 2006.
11. Sharipova N. Hayrat-ul abror strukturasida munajatning oʻrni. The American Journal of Social Science and education innovations 5 (12), 73-76, 2023

FRANSUZ TILIDA TILSHUNOSLIK TERMINLARINING OʻZBEK TILIDAGI MILLIY-MADANIY JIHATLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna

**Oʻzbekiston, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti,
Fundamental va gumanitar fanlar kafedrası PhD, dotsent v.b.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslik terminlarining asl etimoni fransuz tilidan kelib chiqqanligi va uning bugungi kun tilshunosligida qoʻllanilishi, ahamiyati, milliy madaniy xususiyatlari xususida soʻz boradi. Shuningdek, tilshunoslik terminlarining oʻzi atayotgan tushuncha, narsa hodisaning mohiyati qay darajada toʻgʻri va aniq ekanligi ochiqlandi.

Kalit soʻzlar: termin, etimon, leksema, soʻz birikmasi, mazmun, milliy madaniy xususiyat.

NATIONAL-CULTURAL ASPECTS OF THE TERMS LINGUISTICS IN FRENCH IN UZBEK

Abstract: This article discusses the origin of the original etymology of linguistic terms in the French language, their use in today's linguistics, their importance, and national cultural characteristics. Also, it was revealed to what extent the essence of the concept, object, and phenomenon, which the linguistic terms themselves refer to, is correct and clear.

Key words: term, etymon, lexeme, phrase, content, national cultural characteristic.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ АСПЕКТЫ ФРАНЦУЗСКИХ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: В данной статье рассматривается происхождение оригинальной этимологии лингвистических терминов во французском языке, их использование в современной лингвистике, их значение и национально-культурные особенности. Также выявлено, насколько правильно и четко передается суть понятия, предмета, явления, к которым относятся сами лингвистические термины.

Ключевые слова: термин, этимон, лексема, фраза, содержание, национально-культурная характеристика.

Ilm-fanning barcha sohalari bo'yicha davr talablariga javob beradigan terminologik tizimlarni yaratish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, ularni amalga oshirish nihoyatda murakkab, katta kuch talab qiladigan ish ekanligi ham shubhasiz. Har bir terminning o'zi atayotgan tushuncha, narsa hodisaning mohiyati qay darajada to'g'ri va aniq ekanligi muhim, albatta.

Shu bilan birga terminning muayyan talabga qay darajada javob berishi, to'la qonli ifodalay olishi aniqlanadi. Ma'lumki, xorijiy tillar qatorida fransuz tilining ham tilshunoslik terminlariga qo'shgan hissasi o'zlashmalar hisobiga sezilarli darajada deyish mumkin. Shu kabi terminologik so'zlarning qo'llanilishi xususida so'z yuritamiz.

Argo fransuz tilidan o'zlashgan argot — jargon, shuningdek, yasama til, biror ijtimoiy guruh, toifaning (masalan, talabalar, sportchilar, o'g'rilar va b.) o'ziga xos, boshqa shaxslar tushunmaydigan lug'aviy birliklardan iborat yasama til hisoblanadi. Misol uchun, kolxoz — chiptasiz yo'lovchilar (haydovchilar tilida).

Argotizmlar fransuz tilidan olingan bo'lib argotisme-argot -jargon ya'ni biror argoga xos so'z va iboralar sanaladi. Argotizmlar adabiy tilde biror uslubiy maqsad bilan qo'llanilishi mumkin.

Assanans fransuz tilidan kirib kelgan termin assonance — ohangdoshlik aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlik.

Dubletlar fransuz tilidagi doublet-double –ikkilik bir xil teng semantik tarkibga ega bo‘lgan til birliklari nazarda tutiladi. Misol keltiradigan bo‘lsak, tilchi-tilshunos.

Jargon fransuz tilidan kirib kelgan istiloh jargon biror guruh vakillariniig, o‘z nutqi bilan ko‘pchilikdan ajralib turish maqsadida, o‘zicha mazmun berib ishlatadigan so‘z va iboralari. Mas., novcha (aroq), qizil (vino) — ichuvchilar nutqiga xos; tog‘amning o‘g‘li (milisioner, inspektor) — shofyorlar nutqida.

Invariant fransuz tilidagi invariant ya’ni o‘zgarmas til qurilish birligining fonema, morfema, leksema va shu kabilarning nutqdagi muayyan voqelanishidan ajratib, mavhum olingan holati tushuniladi.

Kalembur fransuz tilidan olingan leksema calembour so‘z o‘yini sifatida tilde qo‘llaniladi.

Kalka fransuz tilida calque nusxa, taqlid o‘zga til materialidan qismma qism nusxa olish yo‘li bilan hosil qilingan so‘z yoki til birligi sanaladi. Kalkalar semantik, frazeologik, leksik, semantik kabi turlarga bo‘linadi.

Modallik fransuz tilidan kirib kelgan termin modalite asl lotin tiliga borib taqaladi modus-mayl degan mazmunni anglatadi. So‘zlovchining ifodalanayotgan fikrga munosabatini bildiruvchi grammatik-semantik kategoriyadir. U orqali fikr mazmuni real yoki noreal, qat’iy va shu kabi tarzda tasavvur etilishi mumkin. Modallik so‘z, qo‘shimcha, yuklama va ohang orqali ifodalanishi mumkin. Masalan, yoza olmoq (ol yordamida yasalgan shakl qodirlik ma’nosini anglatmoqda).

Model fransuz tilida modele, italyan tilida modello – namuna, qolip deya tarjima qilinib, til hodisasi (nutq birligi) tarkibiy qismlarining joylashish holatini ko‘rsatuvchi sxema yoki namuna sifatida ko‘riladi.

Replika fransuz tilidan kirib kelgan termin replique – luqma dialogik nutqda har bir suhbatdoshning aytiladigan gapiga nisbatan qo‘llaniladi.

Reprezentatsiya fransuz tilidagi represenatation - tiklash, namoyish etish o‘zbek tilida ikki holatda tushuniladi, birinchisi til faktlarini eng ishonarli shart-sharoitlarda namoyish qilish. Ikkinchi holatda nutqda tushirib qoldirilgan so‘zga xos semantik komponentning saqlanib qolgan so‘zga yuklatilishi tushuniladi, masalan, Bizning yorni ko‘rgan (odam) bormi?

Situatsiya fransuz tilidan kirib kelgan so‘z sifatida situation- vaziyat, sharoit, holat sifatida ko‘riladi. Shuningdek, nutq akti yuz berayotganda unga ta’sir ko‘rsatuvchi sharoit nazarda tutiladi.

Tire fransuz tilidan olingan so‘z turet- chiziqcha, tirer- tortmoq, uzaytirmoq mazmunini anglatadi. Defisga nisbatan uzunroq chiziq bilan ifodalanadigan tinish; belgisi (—). Bu belgi gaplar, qo‘shma gap qismlari, gap bo‘laklari orasidagi sintaktik munosabatlarni ko‘rsatish uchun ishlatiladi: Poyonsiz paxta dalalarining husni va barakati, so‘lim bog‘larning sharbati va gullarning ming tovlangan ranglari—barchasi suv tufayli (Oybek).

Fuziya fransuz tilidan kirib kelgan termin iusion- qo‘shilish, tutashish mazmunida qo‘llanilib asl kelib chiqishi lotin tiliga borib taqaladi. Lotin tilida fusio- quyish, quyma kabi tarjimaga ega o‘zbek tilida fonema tarkibining

o'zgarishi, yonma yon kelgan fonemalarning singishuvi natijasida fonemalar chegarasining noaniqlashuvi, bir fonemaning har ikki morfema tarkibi uchun umumiy bo'lib qolishi tushuniladi, Fikrimizni oydinlashtirish uchun quyidagi misolni keltirish joiz o'qiyotirman, o'qib yotibman.

Eksplitsit konstruksiya etimoni fransuz tilidan olingan bo'lib, expliquer-tushuntirmoq, ochiq ifodalamoq mazmunida so'z qurilishidagi birliklarning mazmunini ochiq ifodalashda qo'llaniladi.

Ekstralingvistik omillar fransuz tilidan vazifasiga ko'ra kirib kelgan so'z birikmasi etra-tashqi, linguistique – tilga xos kabi mazmunni anglatib nolisoniy omillarga nisbatan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, lug'at sifatida keltirilgan maqolada fransuz tilidan kirib kelgan tilshunoslik terminlarining tarkibiy qismlarini o'rganish ularning izohini tadqiq etish ularning vazifaviy ko'lamini ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, ayrim terminlar mazmuni yoki qandaydir bir xususiyati bilan boshqa termin yoki terminlarga aloqador bo'lishi mumkinligi shu terminlar bildiradigan lingvistik tushunchalarning mohiyatini aniq va oson tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Азим Ҳожиёв, Тошкент «Ўзбекистон Миллии Энциклопедияси» давлат илми нашриёти, 1985.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002
3. Ermatov I.R. O'zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019
4. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015
5. Хамроева Ш.М. Корпус лингвистикаси атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – 2020
6. Sharifovna, A. G. (2022). Views of french renaissance thinkers on child upbringing. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 386-390.
7. Nendissa, D. R., Alimgozhaevich, I. K., Sapaev, I. B., Karimbaevna, T. M., Bakhtiyarovna, S. Z., Abdullah, D., ... & Sharifovna, A. G. (2023). Sustainable livestock grazing in Kazakhstan practices, challenges, and environmental considerations. Caspian Journal of Environmental Sciences, 21(4), 977-988.